

**Ta'lim-tarbiya jarayonlarida maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarini ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish**

Sulaymonova Munisa Erkinovna

TDPU mustaqil izlanuvchi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmasini shakllantirishning mazmuni va mohiyati, ahamiyati va zaruriyatiga oid qarashlar ilgari surilgan.

**Tayanch tushunchalar:** Ta'lim, tarbiya, ijodiy fikrlash, intelektual qobilyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, e'tiqod, so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzuksiz ta'lim tizimi orqali har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashni nazarda tutgan holda oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalari sifatida, talabalarning fanlar asoslari bo'yicha mustahkam bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda bilim olish ehtiyojini, asosiy o'quv-ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlarni, ijodiy fikrlash va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirish kabi yo'nalishlarni belgilab berdi.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, tatbiq etilayotgan yangiliklar, ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, xalqimizning yashash va mehnat qilish sharoitining yaxshilanishi, umuman olganda, erishilgan moddiy va ma'naviy salohiyat erkinligi mamlakat mustaqilligining tuhfasi bo'lib, erkin mehnat qilish va yashash, mustaqil fikrlash, e'tiqod va so'z erkinligi, diniy bag'rikenglik, ijodiy faollik, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarning hurmat qilinishi va qadrlanishi, kuchli ijtimoiy himoya hamda bularning huquqiy asoslarining yaratilishi yoshlarni mustaqillik, uning mazmun-mohiyati, ahamiyati va zaruriyatini ob'ektiv baholashga o'rgatish yo'nalishida o'ziga xos vazifalar yuklaydi.

Bular, o'z navbatida, oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonlarida talabalarda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish, ko'proq erkin va innovatsion fikrlashga o'rgatish, ularning sub'ektivligini oshirish, mustaqil ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, mustaqil olgan ma'lumotlarini o'rganish asosida ularning ilmiyligi, yangiligi va ishonchlilagini tahlil qilish, eng yangi va ishonchli axborotlar bilan ta'minlash, talabalarning faoliyatini muvofiqlashtirishda axborotlar almashinuviga alohida e'tibor qaratish zaruriyatini belgilaydi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan uzuksiz ta'lim tizimidagi islohotlar, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, ta'lim sifatini va samaradorligini oshirish yo'nalishlarida ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari uchun zaruriy va yetarli shart-sharoitlarni yaratib berilishi oliy o'quv yurtlari rahbarlari va professor-o'qituvchilariga ham o'ziga xos mas'uliyat yuklaydi.

Ta'lim tizimini tubdan isloh qilish jarayonlarida ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish va yangilash muhim ahamiyatga ega. Bu, albatta, o'tmishning ijobiy g'oyalaridan, ilg'or tajribalardan ham voz kechish degani emas. Balki ulardan foydalanish, boy ilmiy salohiyatga tayanish, milliy va umumbashariy, intellektual hamda ma'naviy merosni amaliyatga tatbiq etilishini taminlash demakdir.

Ajdodlarimiz bizga inson mehnatining minglab ajoyib namunalari, san'at, fan, adabiyotga doir jahonga mashhur asarlarni qoldirganlar. Ular azaldan yosh avlod ta'lim-tarbiyasini o'zlarining eng muhim vazifalari sifatida ko'rganlar. Asrlar mobaynida insonga ta'lim-tarbiya berishning asosiy tamoyillarini hisobga olgan xalq pedagogikasi rivojlanib va takomillashib kelgan. Yoshlarni vatanparvarlik, insonparvarlik, Vatanga muhabbat va o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash xalq pedagogikasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan.

Sharq mutafakkirlarining pedagogik ta'limoti hamda Ma'mun akademiyasi olimlari yaratgan o'lmas asarlar dunyo fani va sivilizatsiyasiga qo'shilgan mislsiz hissadir. Ular orasida Muhammad Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq, Abu Sahl Masihiy, Abulkayr ibn Hammor, Abu Mansur as-Saolibiy, Abu Abdulloh Illoqiy, Abu Abdulloh al-Xorazmiy va boshqalarning asarlarida saxovatlilik, insonparvarlik, halollik, do'stlik, Vatanga muhabbat, tabiatga nisbatan ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, mehnatsevarlik, sabr-qanoatlilik, xushmuomalalik, mardlik, e'tiqodlilik,adolatlilik, sadoqatlilik, ijodkorlik, zukkolik, poklik, to'g'rilik kabi sifatlarni yoshlarda tarbiyalash ta'lim-tarbiyaning asosiy yo'nalishlari sifatida keltirilgan.

Uzluksiz ta'lim tizimida islohotlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad ta'lim-tarbiya masalalarini faollikka asoslangan prinsiplarga tayanib amalga oshirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni yangiliklarni tez qabul qilishga undash, istiqlol yaratgan keng imkoniyatlardan foydalanib, faoliyatimizning hamma sohalarida yuksak natijalarga erishish, zamонавијадан, iqtisodiyot, fan-texnika, texnologiyalarning yutuqlari hamda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida talaba-yoshlarda ijodiy faollik ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat ekanligi belgilaydi.

Mustaqillikkacha bo'lgan davrdagi xalqimizning yashash sharoiti, millatimiz, xalqimiz, dinimiz va tilimizning kamsitilgani, milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni, inson sha'ni va nomusining toptalgani, shu bilan bir qatorda, mustaqillikka erishish yo'nalishidagi mashaqqatlar, mehnat va ko'rsatilgan jasorat haqida talabalarda tasavvurlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Bu, o'z navbatida, oliy o'quv yurtlari talabalarida mamlakatimizning mustaqilligi, uning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida, ya'ni mustaqillik sharofati bilan xalqimiz o'zligini anglagani, umuminsoniy qadriyatlar va milliy urf-odatlarni qadrlanayotganligi,

yashash va mehnat qilish, erkin fikrlash, so‘zlash va ijod qilish, o‘zi istagan dinga e’tiqod qilish yoki qilmaslik kabi imkoniyatlarning yaratilgani haqida tushunchalar berish zaruriyatini belgilaydi.

### Foydalanaligan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: “O‘zbekiston”, 2017. -488 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori.
3. Sh.S.Shodmonova, G.N.Ibragimova, F.O.Mirzaeva. Pedagogika nazariyasi va tarixi. Darslik – T.: SANO-STANDART, 2022.